

MUSULMON HUQUQIDA VOYAGA YETGAN MEHNAT LAYOQATLI FARZANDLARDAN OTA-ONAGA TA'MINOT UNDIRISH MASALALARI

M.S.Usmonova

Farg'ona davlat universiteti Huquqshunoslik fakulteti
Maxsus huquqiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onani moddiy ta'minlash majburiyatining islom huquqidagi nazariy asoslari hamda zamonaviy musulmon davlatlari qonunchiligida tartibga solinishi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Qur'oni karim oyatlari, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislarida ota-onaga nisbatan hurmat, g'amxo'rlik va moddiy yordam ko'rsatish majburiyati qanday asoslanganligi yoritiladi. Shuningdek, fiqhiy ta'limotlar va mufasssirlar qarashlari asosida mazkur majburiyatning huquqiy va axloqiy mohiyati ochib beriladi. Maqolada Saudiya Arabistoni, Eron, Misr, Iordaniya, Marokash, Pokiston, Malayziya va Indoneziya kabi davlatlarda ota-onani ta'minlash majburiyatining huquqiy tartibga solinishi ham qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida farzandlarning ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati islom huquqida diniy, axloqiy va huquqiy asosga ega ekani hamda ayrim davlatlarda u qonunchilik darajasida mustahkamlanganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ota-ona ta'minoti, aliment majburiyati, islom huquqi, Qur'oni karim, hadis, fiqh, oilaviy huquq, musulmon davlatlari qonunchiligi, farzandlarning majburiyatlari, shariat tamoyillari.

ВОПРОСЫ ВЗЫСКАНИЯ АЛИМЕНТОВ С СОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ДЕЕСПОСОБНЫХ ДЕТЕЙ В ПОЛЬЗУ ИХ РОДИТЕЛЕЙ В МУСУЛЬМАНСКОМ ПРАВЕ

М.С. Усмонова

Ферганский государственный университет, юридический факультет
Доцент кафедры специальных правовых наук, кандидат юридических наук

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-правовые основы обязанности совершеннолетних трудоспособных детей по материальному содержанию родителей в исламском праве, а также особенности её правового регулирования в законодательстве современных

мусульманских государств. В ходе исследования рассматриваются положения Корана и хадисов Пророка Мухаммада (мир ему и благословение), в которых обосновывается обязанность детей проявлять уважение, заботу и материальную поддержку по отношению к родителям. На основе трудов исламских богословов и факихов раскрывается правовая и нравственная сущность данной обязанности. В статье также проводится сравнительно-правовой анализ регулирования обязанности содержания родителей в таких странах, как Саудовская Аравия, Иран, Египет, Иордания, Марокко, Пакистан, Малайзия и Индонезия. По результатам исследования делается вывод о том, что обязанность детей по материальному обеспечению родителей в исламском праве имеет религиозные, нравственные и правовые основания и в ряде государств закреплена на законодательном уровне.

Ключевые слова: содержание родителей, алиментные обязательства, исламское право, Коран, хадисы, фикх, семейное право, законодательство мусульманских стран, обязанности детей, шариат.

ISSUES OF COLLECTING MAINTENANCE FROM ADULT CAPABLE CHILDREN TO THEIR PARENTS IN MUSLIM LAW

M.S.Usmonova

Fergana State University Faculty of Law

Associate Professor of the Department of Special Legal Sciences, PhD

Annotation: This article analyzes the theoretical and legal foundations of the obligation of adult able-bodied children to provide financial support to their parents in Islamic law and examines its regulation in the legal systems of contemporary Muslim states. The study explores the provisions of the Qur'an and the hadiths of Prophet Muhammad (peace be upon him), which emphasize the duty of children to respect, care for, and financially support their parents. Based on the works of Islamic scholars and jurists, the legal and moral nature of this obligation is revealed. The article also provides a comparative legal analysis of the regulation of parental maintenance obligations in countries such as Saudi Arabia, Iran, Egypt, Jordan, Morocco, Pakistan, Malaysia, and Indonesia. The study concludes that the obligation of children to support their parents in Islamic law is grounded in religious, moral, and legal principles and is formally закреплена in the legislation of several Muslim states.

Keywords: parental maintenance, alimony obligations, Islamic law, Qur'an, hadith, fiqh, family law, legislation of Muslim countries, duties of children, Sharia principles.

Zamonaviy musulmon huquqiy tizimlarida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati masalasi turli davlatlarda turlicha huquqiy yondashuvlar asosida tartibga solinadi. Xususan, Saudiya Arabistoni va Eron kabi davlatlarda mazkur majburiyat bevosita shariat normalariga tayangan holda diniy-huquqiy burch sifatida e'tirof etilsa, Misr, Iordaniya va Marokash singari mamlakatlarda u musulmon huquqining an'anaviy qoidalariga asoslangan holda oila huquqi doirasida kodifikatsiyalangan. Pokiston, Malayziya va Indoneziya kabi aralash huquq tizimiga ega davlatlarda esa ota-onani ta'minlash majburiyati musulmon huquqi tamoyillarini zamonaviy sud amaliyoti bilan uyg'unlashtirgan holda tartibga solinadi. Ushbu davlatlar tajribasini tahlil qilish voyaga yetgan farzandlarning ota-onaga nisbatan ta'minot majburiyatining huquqiy mohiyatini chuqurroq anglash va milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muallif tomonidan olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, islom huquqida farzandlarning ota-onaga nisbatan ta'minot (aliment) berish majburiyati Qur'oni karim oyatlari, Payg'ambar sunnati hamda islom ulamolarining fiqhiy qarashlariga asoslanadi. Ushbu majburiyatning huquqiy-axloqiy mohiyati, avvalo, Qur'oni karimda belgilab berilgan umumiy ijtimoiy adolat va oilaviy mas'uliyat tamoyillarida o'z aksini topgan.

Xususan, **Baqara surasining 215-oyatida** mol-mulkni sarflash masalasida ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan bo'lib, unda birinchi navbatda ota-onaga yordam ko'rsatish zarurligi qayd etiladi. Mazkur oyat mazmunidan kelib chiqib, farzand tomonidan amalga oshiriladigan har qanday moddiy yordam eng avvalo ota-onaning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilishi lozimligi anglashiladi. Al-Marog'iy ushbu oyatga bergan tafsirida, ota-onaning ustuvorligi ularning farzandni bolalikdan voyaga yetguniga qadar tarbiyalab, kamolga yetkazganligi bilan izohlanishini ta'kidlaydi. Demak, ota-onaga ta'minot berish nafaqat ijtimoiy majburiyat, balki axloqiy qarzdorlik sifatida ham baholanadi¹.

Shuningdek, M. Quraish Shihob tomonidan yozilgan *Tafsir al-Mishbah* asarida² Baqara surasining 215-oyati moliyaviy yordam ko'rsatishda ketma-ketlik va ustuvorlik mezonlarini belgilovchi norma sifatida talqin qilinadi. Ushbu talqinga ko'ra, moddiy yordam ko'rsatishda ona va ota birinchi o'rinda turadi, chunki ular farzandning dunyoga kelishi va kamol topishiga bevosita sababchi bo'lgan shaxslardir. Shundan keyin qarindoshlar, yetimlar, muhtoj shaxslar hamda

¹ Al-Maraghi, Ahmad Mustafa. *Tafsir al-Maraghi*. Cairo: Dar al-Fikr, 1984, vol. 2, b. 135–136.

² Shihab, M. Quraish. *Tafsir al-Mishbah: Pesan, Kesan, dan Keserasian al-Qur'an*. Jakarta: Lentera Hati, 2002, jilid 1, b. 472–473.

yoʻlda qolgan kishilar taʼminlanishi lozim boʻlgan ijtimoiy guruhlar sifatida eʼtirof etiladi.

Mazkur yondashuv Oʻzbekiston huquqshunos olimlari tomonidan ham qoʻllab-quvvatlanadi. Jumladan, H.R. Rahmonqulovning taʼkidlashicha, ota-onani moddiy jihatdan taʼminlash farzand zimmasidagi oilaviy-huquqiy majburiyat boʻlib, u nafaqat huquqiy norma, balki chuqur axloqiy mazmunga ham ega. Olimning fikricha, mazkur majburiyat oilaning barqarorligini taʼminlash hamda avlodlararo masʼuliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.³

Mazkur yondashuv Oʻzbekistonlik islomshunos olimlar qarashlarida ham oʻz ifodasini topgan. Jumladan, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ota-onaga nisbatan gʻamxoʻrlik va ularni moddiy jihatdan taʼminlash farzand zimmasidagi majburiyat ekanini taʼkidlab, bu majburiyat Qurʼoni karim va sunnatga asoslangan qatʼiy axloqiy hamda diniy talab sifatida qaralishini qayd etadi. Olimning fikricha, ota-onani taʼminlash farzandning ixtiyoriy ehsoni emas, balki uning zimmasidagi masʼuliyat boʻlib, u farzandning imkoniyatlari doirasida amalga oshirilishi lozim.⁴

Bundan tashqari, **Niso surasining 36-oyati** ham ota-onaga yaxshilik qilish masalasida muhim huquqiy-axloqiy asos boʻlib xizmat qiladi. Ushbu oyatda Allohga ibodat qilish va Unga shirk keltirmaslik haqidagi buyruqdan soʻng, ota-onaga yaxshilik qilish alohida taʼkidlanadi. Bu holat ota-onaga hurmat va gʻamxoʻrlik qilish islomiy qadriyatlar tizimida yuksak oʻringa ega ekanini koʻrsatadi⁵.

Tafsir al-Mishbahda qayd etilishicha, mazkur oyatda ota-onani ifodalash uchun “al-validain” atamasining qoʻllanilishi bejiz emas. Ushbu atama biologik ota va onani anglatib, farzandning ular oldidagi masʼuliyatini yanada kuchliroq maʼnoda ifodalaydi⁶. M. Quraish Shihobning taʼkidlashicha, “valid” va “validat” soʻzlari biologik ota-onani bildiradi va bu jihat farzandlarning aynan oʻz ota-onalariga nisbatan moddiy va maʼnaviy majburiyatlarini aniq belgilashga xizmat qiladi. Bu esa “abb” va “umm” atamalaridan farq qiladi, chunki mazkur soʻzlar biologik boʻlmagan ota-onaga nisbatan ham qoʻllanilishi mumkin⁷.

Umuman olganda, Qurʼoni karim oyatlari va ularning mufasssirlar tomonidan berilgan talqinlari islom huquqida farzandlarning ota-onani taʼminlash majburiyati qatʼiy axloqiy va huquqiy asosga ega ekanini koʻrsatadi. Mazkur qoidalar keyinchalik fiqhiy taʼlimotlar orqali rivojlantirilgan boʻlib, ota-onani moddiy

³ Rahmonqulov, H.R. *Oila huquqi*. Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2012. 210–218-betlar.

⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Baxtiyor oila*. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017. B 143–146.

⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol*. Toshkent: Hilol-Nashr, 2016. 1-jild, b. 318–320.

⁶ Shihab M. Quraish. *Tafsir al-Mishbah: Pesan, Kesan, dan Keserasian al-Qurʼan*. Jakarta: Lentera Hati, 2002. Jilid 2, 268–270-betlar.

⁷ Shihab, M. Quraish. *Tafsir al-Mishbah: Pesan, Kesan, dan Keserasian al-Qurʼan*. Jakarta: Lentera Hati, 2002. Jilid 2, b 269–271.

jihtadan qo'llab-quvvatlash farzand zimmasidagi muhim majburiyat sifatida e'tirof etiladi.

Isro surasining 23-oyatida farzandlarning ota-onaga nisbatan axloqiy va huquqiy mas'uliyati qat'iy belgilab berilgan. Ushbu oyatda Alloh taolaga ibodat qilish buyrug'i bilan bir qatorda, ota-onaga yaxshilik qilish majburiyati ham alohida ta'kidlanadi. Xususan, ota-onaning biri yoki ikkalasi farzand qaramog'ida keksayib qolgan taqdirda, ularga nisbatan hatto eng kichik norozilik ifodasi ham bildirilmasligi, aksincha, muloyim va hurmatli so'zlar bilan muomala qilinishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi⁸.

Mazkur oyat mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, islom huquqida ota-onaga nisbatan hurmat, ehtirom va g'amxo'rlik nafaqat axloqiy fazilat, balki majburiy xulq-atvor qoidasi sifatida qaraladi.

Luqmon surasining 14–15-oyatlari majmuasidan anglashiladiki, ota-onaga ehtirom ko'rsatish umumiy va doimiy majburiyat hisoblanadi. Ushbu majburiyat ota-onaning hayotlik davrida ham, vafotidan keyin ham ularga yaxshilik qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ota-onaga bo'lgan bunday ehtiromning muhim ko'rinishlaridan biri — farzandning o'z moddiy imkoniyatlari doirasida ota-onaning asosiy ehtiyojlarini, xususan kundalik oziq-ovqat bilan ta'minlash majburiyatidir. Bu holat islom huquqida farzandlarning ota-onani ta'minlashga doir mas'uliyatining huquqiy va axloqiy asosini tashkil etadi.

Mazkur oyat mazmuni O'zbekistonlik islomshunos olimlar tomonidan ham keng sharhlangan. Xususan, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Luqmon surasining 14–15-oyatlarini izohlar ekan, ota-onaga itoat qilish majburiyati **e'tiqod masalasidan mustasno** ekanini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, agar ota-onalar farzandni Allohga shirk keltirishga majburlasalar, bu masalada ularga bo'ysunilmaydi, biroq dunyoviy munosabatlarda ota-onaga nisbatan hurmat, yaxshilik va odob doirasidagi muomala saqlanib qolishi shart. Bu holat islomda ota-onaga bo'lgan hurmat mutlaq itoat emas, balki **axloqiy mas'uliyat va muvozanat tamoyiliga** asoslanganini ko'rsatadi⁹.

Shuningdek, Alouddin Mansur o'zining Qur'on tarjimasi va sharhlarida Luqmon surasi 15-oyatini sharhlar ekan, mazkur oyat ota-onaga nisbatan muomalada **aqida va axloq o'rtasidagi chegarani** belgilab berishini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, e'tiqod masalasida Allohga itoat ustuvor bo'lsa-da, ota-onaga nisbatan dunyoviy hayotda yaxshilik qilish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish va odob bilan munosabatda bo'lish farzand zimmasidagi uzluksiz burch hisoblanadi.

⁸ Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolar tarjimasi. Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. Isro surasi, 23-oyat.

⁹ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Tafsiri Hilol*. Toshkent: Hilol-Nashr, 2016. 1-jild, 348–350-betlar. (Luqmon surasi 14–15-oyatlar tafsiri).

Bu yondashuv farzandning ota-onaga bo'lgan munosabatida muvozanatli va mas'uliyatli pozitsiyani shakllantiradi.¹⁰

Islom huquqida farzandlarning ota-onani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyati nafaqat Qur'oni karim oyatlarida, balki Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislarida ham mustahkam asoslangan. Quyidagi hadislar ushbu majburiyatning huquqiy va axloqiy mohiyatini ochib beradi.

Birinchidan, **Sunan Ibn Mojja**¹¹ to'plamida keltirilgan hadisda ota-onaning farzand mol-mulkidan foydalanish huquqi masalasi yoritiladi. Mazkur rivoyatda Jabir ibn Abdulloh (r.a.)dan naql qilinishicha, bir kishi Payg'ambarimizga (s.a.v.) murojaat qilib, o'zining mol-mulki va farzandlari borligini, shu bilan birga otasining ham ushbu mol-mulkka ehtiyoji mavjudligini bildiradi. Shunda Rasululloh (s.a.v.) farzand va uning mol-mulki ota uchun ekanini ta'kidlaydi (Ibn Mojja, 2282). Ushbu hadis ota-onaning ehtiyojlari mavjud bo'lgan holatda farzandning mol-mulkidan foydalanish huquqiy va axloqiy jihatdan oqlanishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, **Sahih al-Buxoriy**da rivoyat qilingan hadisda¹² oila a'zolarini ta'minlash ibodat darajasiga ko'tarilishi bayon etiladi. Unda Rasululloh (s.a.v.) musulmon kishi o'z oilasini ta'minlash maqsadida mol sarflab, buning evaziga Allohdan savob umid qilsa, bu amal uning uchun sadaqa hisoblanishini marhamat qilgan (Buxoriy, 5351). Ushbu hadis farzand tomonidan ota-onani moddiy ta'minlash nafaqat majburiyat, balki savobli amal ekanini ham anglatadi.

Uchinchidan, **Sunan Abu Dovud** to'plamida keltirilgan hadisda ota-onaga bo'ysunish va ehtirom ko'rsatishning ustuvorligi ta'kidlanadi. Rivoyatda bir sahoba Rasululloh (s.a.v.)dan kimga birinchi navbatda itoat etish lozimligini so'raganida, Payg'ambarimiz (s.a.v.) bir necha bor "onang" deb javob berganlar (Abu Dovud, 5139). Ushbu hadis ota-onaga, xususan onaga bo'lgan hurmat va g'amxo'rlik islomiy qadriyatlar tizimida eng yuqori o'rinda turishini ko'rsatadi¹³.

Umuman olganda, mazkur hadislar islom huquqida farzandlarning ota-onaga nisbatan moddiy ta'minot berish majburiyati qat'iy diniy asosga ega ekanini tasdiqlaydi.

Yuqorida bayon etilgan Qur'oni karim oyatlari va hadislarida mustahkamlangan ota-onani moddiy jihatdan ta'minlash majburiyati zamonaviy musulmon davlatlarining ayrimlarida bevosita qonunchilik darajasida ham mustahkamlangan. Jumladan, Pokiston huquq tizimida voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onani moddiy ta'minlash majburiyati alohida qonun

¹⁰ Alouddin Mansur. *Qur'oni karim ma'nolarining tarjimai va tafsiri*. Toshkent: Cho'lpon, 2004. **Luqmon surasi, 15-oyat sharhi**

¹¹ Ibn Majah, Muhammad ibn Yazid. *Sunan Ibn Majah*. Bayrut: Dar al-Fikr, 1994. Hadis № 2282.

¹² Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. *Sahih al-Buxoriy*. Bayrut shahri: Dar al-Fikr, 1994. Hadis № 5351.

¹³ Abu Dovud, Sulaymon ibn Ash'as. *Sunan Abu Dovud*. Bayrut shahri: Dar al-Fikr, 1994. Hadis № 5139.

bilan tartibga solingan. Xususan, *Muslim Family Laws Ordinance, 1961*¹⁴ Pokiston oilaviy munosabatlar bo'yicha birinchi keng qamrovli tartibga solish bo'lib, u nikoh, ajrim, meros va *nafaqah* (moddiy ta'minot) kabi oilaviy majburiyatlarni kodifikatsiya qiladi. Ushbu norma orqali sudlar musulmon shaxsiy huquq tamoyillariga binoan voyaga yetgan farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi moddiy ta'minot masalalarini hal etishda **shariat prinsiplarini inkorporatsiya qilgan holda** qaror qabul qiladi.

Shuningdek, Pokistonning **Parents Maintenance Act, 2021** qonunida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalarining o'zini boqishga qodir emasligi aniqlangan holatda ularni moddiy ta'minlashga majbur ekani aniq belgilangan. Ushbu norma farzandlarning ota-onani moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini bevosita huquqiy mezon sifatida tan oladi va uni **sud orqali majburiy undirish** mexanizmini yaratadi¹⁵

Ota-onaning ehtiyojlarini qondirish, ularni parvarish qilish va moddiy qo'llab-quvvatlash farzand zimmasiga yuklangan nafaqat axloqiy, balki huquqiy mas'uliyat sifatida ham e'tirof etiladi.

Shu tariqa, Qur'oni karim oyatlari va sunnatda belgilangan ota-onani ta'minlash majburiyati islom huquqida faqat axloqiy tavsiya sifatida emas, balki voyaga yetgan va mehnatga layoqatli farzand zimmasiga yuklatilgan majburiyat sifatida qoraladi. Mazkur majburiyat bajarilmagan taqdirda, fiqhiy ta'limotlarda ota-onaning ta'minot talab qilish huquqi mavjudligi e'tirof etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Kuban davlat universiteti huquq fakulteti o'qituvchisi Palin D.A. ning "Банковская гарантия как финансовый продукт: сравнительный анализ" maqolasi, 2012 - yil.
2. Rossiya Federatsiyasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisod fanlari doktori, professor O. I. Lavrushin tahriri ostidagi "Банковское дело" kitobi, Moskva 2012- yil.
3. Reint Gropp, Kristian Gruendl va Andre Guetler, "THE IMPACT OF PUBLIC GUARANTEES ON BANK RISK TAKING" kitobi, 2010- yil.
4. Iqtisod fanlari doktori, professor Sharbat Abdullaevaning "Bank ishi" nomli kitobi.
5. Soboleva N.V. "Банковская гарантия как способ обеспечения исполнения обязательств" dissertatsiyasi, Tomsk 2012- yil.

¹⁴ [Muslim Family Laws Ordinance, 1961](https://pakistancode.gov.pk/english/UY2FqaJw1-apaUY2Fqa-apaUY2Npa5po-sg-jjjjjjjjjjjjjj), elektron manba: <https://pakistancode.gov.pk/english/UY2FqaJw1-apaUY2Fqa-apaUY2Npa5po-sg-jjjjjjjjjjjjjj>

¹⁵ "Parents Maintenance Act, 2021", Provincial Assembly of the Punjab (Pakistan). Qonun matni: Punjab Legal Portal. elektron manba: <http://punjablaws.punjab.gov.pk/>

6. 1995-yil 11-dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Mustaqil kafolatlar va zaxira akkreditivlar to‘g‘risida”gi konvensiyasi.

7. Vladimir Aleksandrovich Klimentevning ilmiy ishi — "Некоторые вопросы истории банковской гарантии" 2011- yil